

**KOMPOZITORLIK IJODIYOTIDA XALQ MUSIQASINING TUTGAN
O'RNI VA AHAMIYATI**
(Markaziy Osiyo kompozitorlari ijodi misolida)

Muslimaxon Nosirova

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

"Musiqqa ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada kompozitorlik ijodiyotida xalq musiqasining tutgan o'rni va ahamiyati, mavzuga oid tadqiqotlar, Markaziy Osiyo kompozitorlarining ijodiy merosida xalq musiqasining ahamiyatliligi, zamondosh musiqashunos olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarining amalga oshirilishi, Markaziy Osiyo kompozitorlari ijodida xalq musiqasining tutgan o'rni va mavqeyiga oid ma'lumotlar yig'ilib, umumiy fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompozitor, "Manas" eposi, "Bo'ron" operasi, "Layli va Majnun", axloq-estetika, musiqa, san'at, ijodkorlik, "Omnibus" ansambli.

Barchamizga ma'lumki, musiqa san'ati sertarmoq boy va ular rang-barang ijrochilik an'analari bilan insoniyat ma'naviyatining rivojiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan sohadir. Musiqa va san'at maktablari o'quvchilarini axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishda musiqa nihoyatda katta ahamiyat ko'rsatuvchi san'at turlaridan biridir. Musiqaning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u bolalar his-tuyg'ulari va ruhiy holatlarining eng nozik qirralarini, ulardagi farqlarni o'zida ifoda qiladi va shu orqali bolaning ichki olamiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Musiqa san'ati qadim zamonlardan beri muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan. U bolada olamga va boshqa kishilarga bo'lgan insoniy munosabat asoslarini tarkib toptiradi. Mana shu sababdan ta'lim tizimida, xususan, musiqa va san'at maktablari faoliyatida o'quvchilarni axloqiy-estetik madaniyatni tarbiyalash vazifasi muhim muammolar qatoridan o'rin egallaydi.

Kompozitor (lotincha: compositor — tuzuvchi, yaratuvchi, ijod etuvchi) 1) ko'p ovozli musiqa asarlari muallifi, musiqa ijodkori; 2) shaxmat sohasida o'zining mustaqil o'yin uslubi (kompozitor)ni yaratuvchi ijodkor.

"Kompozitor" atamasi XVI-asrga kelib Italiyada keng tarqalgan. Kompozitorlik kasbi ijodkordan musiqiy-ijodiy qobiliyat bilan birga maxsus (kompozitsiya fani sohasidagi) puxta bilim ham talab etadi. Kompozitor nota yozuvi yordamida musiqa asarlarini ijod etadi, yangi, individual badiiy mazmunni ifodalashga harakat qiladi.



Shu jihati bilan an'anaviylik mezoniga tayanib monodiya tizimida ijod etuvchi bastakordan farq qiladi. Professional kompozitorlar oliy musiqa maktabi — konservatoriyaning kompozitorlik fakultetida ta'lim oladilar.

O'zbekistonda kompozitorlik ijodiyoti XIX-asrning oxiri (Vyacheslav Leysek va boshqalar), ayniqsa, 1920–1930-yillardan boshlab (V.Uspenskiy, A.Kozlovskiy, G.Mushel va boshqalar) jadal rivojlandi. Mahalliy kompozitorlardan M.Ashrafiy, T. Sodiqov, Manas Leviyev, Mutal Burhonov, Sulaymon Yudakovlarning ilk ijodiy tajribalari 1930–1940-yillarga mansub.

Mustaqillik davrida O'zbekiston kompozitorlarining ijodi yangi bosqichga ko'tarildi. Yosh kompozitorlardan Avaz Mansurov, Dilorom Omonullayeva, K.Ergashev, D.Yanov-Yanovskiy, N.G'iyosov va boshqa musiqa hayotiga, shu jumladan, estrada va film musiqasi, simfonik hamda kamer musiqasi janrlarida rivojiga salmoqli hissa qo'shmoqda.


XX-asrning 50-60 yillarida Ik.Akbarov, S.Boboev, B.Gienko, H.Rahimov, F.Yanov-Yanovskiy, R.Hamroyev, T.Qurbonov, R.Vildanov kabi kompozitorlarimiz musiqiy ijodiyotda samarali ijod qildilar. Aytish kerakki, yuqorida nomlari zikr etilgan kompozitorlar avlodi kompozitorlik ijodiyotining murakkab va jiddiy janrlaridan hisoblangan simfonik musiqa, teatr, kino musiqa bo'yicha barakali ijod qilib, ushbu sohalarning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shdilar.

1970-90-yillarda esa D.Saydaminova, N.Zokirov, R.Abdullayev, M.Bafoyev, M.Tojiyev, M.Mahmudov, U.Musayev, D.Omonullayeva kabi kompozitorlar avlodi ham o'zlarining ijodiy asarlari bilan alohida ahamiyatga molik. Shuni aytib o'tish joizki, mazkur davrning tub o'zgarishlaridan biri bu simfoniya Mirsodiq Tojiyevning simfonik ijodiyoti milliy musiqamizni o'ziga xos jihatlarini amalda tadbiq etdi. U yaratgan simfoniyalarning aksariyati o'zbek musiqa san'atimizning gultoji hisoblangan milliy maqomlari asosida yaratilgani fikrimcha maqom-simfoniya janriga asos solinganidan dalolat beradi. Ushbu tajriba murakkabliklarni yuzaga keltirib chiqarishi bilan bir qatorda musiqamizning rang-barang qatlamlarini yuzaga olib chiqadi. Ushbu tajriba orqali maqomlarimizning yevropa musiqiy cholg'ularida naqadar nafis ijro etilishi kishini mulohazaga chorlaydigan holat hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston kompozitorlari ijodida zamonaviy vositalardan qo'llash borasida salmoqli ijodiy asarlar yaratilmoqda. Ular yaratgan musiqiy asarlar dunyoning turli shaharlarida nomdor simfonik orkestr va ansambllarida yangrab, musiqa ixlosmandlarining olqishiga sazovor bo'lmoqda. Xususan, kompozitor Feliks Yanov-Yanovskiy, Dmitriy Yanov-Yanovskiy, Artyom Kim, Jahongir Shukur, Aziza Sodiqova, Farrux Akramovlarni keltirishimiz mumkin.


Ularning ijodiy asarlarida zamonaviy ifoda vositalarini izlash borasida bir qator ijodiy tajribalarga ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy kompozitorlik ijodiyotiga xos sonoristika, kolloristika, noodatiy tembr, noan'anaviy ohanglar yaratish an'anaviy tus kasb etmoqda.

Kompozitor Dmitriy Yanov-Yanovskiyning urma-zarbli cholg'ular uchun "Haiku for solo percussion" asari yakkaxon ijrochi mo'ljallangan bo'lib, ijrochining o'zi bir necha zarbli cholg'ularni ijro etadi. Asarni nota mantnisiz tinglaganda go'yoki, 5 nafar cholg'uchi ijro etayotganga o'xshaydi. Bir vaqtda chalinadigan zarbli cholg'ular soni 2 ta yoki 3 ta bo'lib, ritmik nuqtayi nazaridan ancha murakkablikka ega. Bu asar ijrochida ma'lum ijrochilik hamda zamonaviy partitura o'qish ko'nikmalarini talab etadi.



Musiqiy asarda urma-zarbli cholg'ularda boshqa cholg'ularning spesifik effekti, ohangini aks-sadosini ifodalash bilan shu bilan bir qatorda noodatiy xushtaksimon ovozning yuqori diapazonda yangrashishi bilan boshqa asarlardan farq qiladi. Ushbu asar ma'lum va noma'lum voqea, hodisani so'zlab berayotgandek tuyulishi mumkin.

"Haiku for solo percussion" asarida poliritmik mavzu yaqqol aks etadi. Turli urma-zarbli cholg'ularda (tovush balandligi aniq va noaniq) o'ziga xos ritmik mavzular turli bo'yoqlarda yangraydi. Bu esa badiiy asarga oid hikoya bayonini eslatadi. Musiqiy partitura zamonaviy grafik ko'rinishga ega ekanligi, ritmik yozuvning o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Ijrochidan ijro davomida ziyraklik, aniqlik talab etiladi. Shuningdek, ritmik qatlamlarda ifodalanayotgan mavzuni aniq intonatsiya bilan ijro etish maqsadga muvofiq.



Noan'anaviy cholg'ularning o'zaro uyg'unlashuvi asarda o'ziga xos tembr-sonor bo'yoqni beradi. Odatda ijrochiga 2 yoki 3 ta cholg'ular ijrosi uchun asarlar bastalanadi. Aynan yakka ijrochi uchun mo'ljallanganligi asarning badiiy ahamiyatini oshiradi. Ijro vaqtida bir cholg'udan ikkinchi cholg'uga o'tishda o'ziga xos uyg'unlik paydo bo'ladi.

Musiqiy partituraning grafik ko'rinishi individual va innovatsion ko'rinishga ega. Agar partituraning grafik nuqtayi nazardan kuzatadigan bo'lsak, partitura oddiy gorizontaldan qiya o'rgimchak uyiga o'xshab rivojlangan. Bu ham aynan faktura hisobida kelib chiqqan sababi 1ta cholg'udan bir nechtagacha cholg'uni bir vaqtda ijrosiga bog'liq.

Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindori, iste'dodli kompozitor Farruh Akramovning "Shom" asari 2009-yilda "Omnibus" ansambli uchun yozilgan. Asar nay, chang, zarbli cholg'ular, lenta kabi cholg'ular ishtirok etadi. "Shom" asarida metro-ritm nuqtayi nazaridan poliritmiyaning turli ko'rinishlari yaqqol seziladi. Musiqiy asarning g'oyasi shom paytidagi tabiatdagi o'ziga xos tarovati, ko'rinishi musiqiy va zarbli cholg'ularda o'z aksini topgan. Mazkur musiqiy asarda ritm muhim ahamiyat kasb etadi. Ritm asarni shakllantiruvchi muhim elementdir. Shuningdek, asarda dinamika ham muhim vositalardan biri bo'lib, tezlik bilan almashinishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, nay cholg'usidagi sonorik effektlarning qo'llanilishi, ijro davomida o'lchovning birin-ketin almashinuvi asarga xos xususiyatlardan biridir.

Asar muallifning ko'rsatmasiga tayanadigan bo'lsak, 09:00 daqiqani tashkil etadi. Mazkur asarda milliy va zamonaviylik sintezlashgan ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda kompozitorlik san'atidagi innovatsion, zamonaviylik aks etgan asarlar sirasiga mazku "Shom" asarini keltirishimiz mumkin.

Kuy yo'lining markazida zarbli cholg'u sonoristik yo'nalishda davom etadi. Mavzuning yakuni kutilmagan shtrixlarga aylanib ketadi. Kuy tonal musiqada boshlanib sonorika (atonal) ko'rinishda (7;00)(9;00) yakunlanadi.



Mazkur asarning ko'p qismida kuy bir cholg'uda boshlanib yana boshqa cholg'uga navbat beradi. Misol uchun, nayda boshlanib chang cholg'usida davom etish yoki nayda boshlanib zarbli cholg'ularda yechilishi, bir cholg'uda milliy musiqa element ijro etayotganda yana bir cholg'uda sonorik effekt yangraydi, bir vaqtda ikki xil an'anadagi musiqa elementlari jaranglashi zamonaviy kompozitsiya usullari qo'llanilganidan dalolat beradi.(9;40)

Atoqli kompozitor Dilorom Saydaminovaning fortepiano uchun "Qadimiy Buxoro devorlari" turkumi musiqiy tili, uslubi jihatidan an'anaviylik va zamonaviylikni o'ziga mujassam etgan yirik turkum sanaladi. Muallif mazkur turkum quyidagicha tartiblashtiradi:

1. "Masjidi Kalon"
2. "Somoniyalar saltanati"
3. "Ismoil Somoniy maqbarasi"
4. "Gumbazlar"
5. "O'lim minorasi"
6. "Buxoro uzra yulduzlar"
7. "Ajdodlar soyalari"
8. "Qadimiy Buxoro devorlari yonida"

Композитор Дилором Сайдаминова mazkur turkum orqali tarix va kelajakni musiqiy ohanglar yordamida tasvirlashga harakat qilgan. “Masjidi kalon” pyesasi tanbur cholg’usining naqshlari, nola-qochirimlari orqali ochiladi.

O‘zbekiston kompozitorlari ijodida ham xalq musiqasining o‘rni beqiyos. Jumladan, A.Kozlovskiy, V.Uspenskiy, M.Burhonov, M.Ashrafiy, T.Sodiqov, Sh.Ramazonov, M.Tojiyev, M.Mahmudov, M.Bafojev, R.Abdullayev, H.Rahimov, D.Amanullayeva, D.Saydaminova, X.Tursunova, O.Abdullayeva, D.Zokirova kabi kompozitorlar ijodida xalqchil musiqiy asarlarni xalq musiqa ijodiyoti namunalariga tayangan holda ijod etishgan.

Barchamizga ma’lumki, o‘zbek musiqa madaniyatining XX asr 30-yillarning ikkinchi yarmida o‘zbek musiqali teatri sahnasida Ye.Brusilovskiyning qozoqcha “Er Targ’in” va M.Magamayevning ozarbayjoncha “Nargiz” operalarining premyeralari bo‘ldi. Bularning hammasi birinchi o‘zbek operalari S.Vasilenko va M.Ashrafiyning “Bo‘ron” hamda R.Glier va T.Sodiqovning “Layli va Majnun” yaratilishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qildi.

“Bo‘ron” operasining mazmuni o‘zbek xalqining chorizimga (1916 yil qo‘zg‘oloni) qarshi kurashi bilan bog‘langan. K.Yashin librettosida voqealar tarangligi syujet chizig‘i rivojining o‘ziga xosligi seziladi. Operaning bosh qahramoni -xalq. Ommaviy saxnalar va syujetni musiqali ifodalashda xorning muhim ahamiyati ham o‘undan. Deyarli har bir pardaning rivojlanish qismini xalq sahnalari tashkil qiladi.

Emotsional mazmuniga ko‘ra operaning xorlari xilma-xil bo‘lib, sahna vaziyatlarini yaxshi aks ettiradi. Xorlarning kuy materiallari ko‘pincha "iq'tibos"lidir: u yoki xalq kuylaridan yoki Xamza qo'shiqlaridan olingan. Masalan, birinchi pardadagi dehqonlarning xotima xori ana shundaylardan. U boylar tomonidan talangan kambag'al Bo'ronga xalqning achinishini ifodalaydi. Xor asosida- Xamzaning "Ishchi bobo" qo'shig'i yotadi.





G'azablangan xalq boylarni xaydagan ikkinchi pardaning final sahnasida Xamzaning "Biz ishchimiz" qo'shig'i yangraydi. Bu ko'tarinki, chaqiriq ruxidagi kuy to'rt ovozli xorning qudratli sadosida dehqonlar jur'atini yaxshi ifodalaydi.

Markaziy Osiyo kompozitorlari ijodida xalq musiqa ijodiyoti keng qo'llanilib kelingan. Qirg'iziston kompozitorlik ijodiyoti an'anaviy musiqa namunalarini to'plash va o'rganish ishlari, asosan, 1920—30 yillarda boshlangan (A. Zatayevich, V. Vinogradov va boshqalar). Shu davrdan boshlab milliy kompozitorlik maktabi ham shakllana boshladi, K. Moldiboyev, M. Abdrayev, A. Tuleyev, A. Omonboyev kabi professional qirg'iz kompozitorlari yetishdi. Musiqali dramalar („Oltin qiz“, A. Vlasov, V. Fere, 1937; „O'lim emas, hayot“, Vlasov, Moldiboyev, Fere, 1938)ning sahnaga qo'yilishi operalar yaratilishiga yo'l ochdi, balet, simfoniylar ijod qilindi.

“Manas“ eposi asosida birinchi qirg'iz operasi („Oygo'zal“, 1939, Vlasov, Moldiboyev, Fere) yaratiddi. Vlasov va Fere “Anor“ (1940), “Arg'imchoq“ (1943) birinchi qirg'iz baletlarini, qirg'iz xalq kuylari asosida ilk simfonik asarlarini (N. Rakov bilan) ijod qilishgan. Vlasov, Moldiboyev, Ferelarning “Manas“ (1946), “To'qtag'ul“ (1958) va boshqa operalari, A. Omonboyev, S. L. Germanovning “Aydar va Oysha“ (1952), A. Abrayevning “Bo'ron oldida“ (1974) va boshqa operalarda qirg'iz xalqining erk va baxt uchun kurashi eks etdi. Iste'dodli ijrochilar yetishdi. Xonandalardan Xalq artistlari S. Kiyizboyeva, A. Moldiboyev, A. Mirzaboyev, B. Minjilkiyev, X. Muxtorov, K. Sartboyev, T. Seytaliyev, Qirg'iziston xalq artistlari K. Chodronov, M. Mustayeva, M. Mahmutova, dirijyorlardan Xalq artistlari A. Jumahmatov, K. Mo'ldabasanov va boshqa mashhur. Opera va balet teatri (1942), filarmoniya (1936), Q. radio va televideniyesining katta simfonik orkestri (1970), Milliy konservatoriya (1993), San'at instituti (1967), Bishkek va O'shda musiqa bilim yurtlari, 100 ga yaqin musiqa maktabi, xalq ijodi markazi mavjud.

Markaziy Osiyo kompozitorlari ijodida xalq musiqasi ulkan ahamiyatga ega bo'lib, ularning asarlarida milliy an'analar, folklor, va zamonaviy uslublarning uyg'unlashuvi sezilarli tarzda aks etadi. Xalq musiqasining o'ziga xos xususiyatlari, uning kuy va ritmik tuzilmalari, turli xalq qo'shiqlari va raqslarini o'z ichiga olgan musiqiy asarlar Markaziy Osiyo musiqasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Markaziy Osiyo kompozitorlari, xalq musiqasi elementlarini asarlariga kiritish orqali, nafaqat milliy madaniyatni asrab-avaylash, balki zamonaviy musiqaga yangi ko'rinish va shakllar kiritishda ham o'z hissalarini qo'shganlar. Bu esa, xalq musiqasining o'ziga xos ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirish va uni san'atning yuqori janrlariga kiritish imkoniyatini yaratdi. Kompozitorlarning ijodida xalq musiqasining tutgan o'rni nafaqat an'anaviy musiqa shakllarini saqlab qolish, balki



ularni yangi kontseptual va texnik nuqtai nazardan qayta ishlash va rivojlantirishga ham xizmat qilgan.

Markaziy Osiyo kompozitorlari ijodida xalq musiqa ijodiyotining qo'llanilishi, o'ziga xos va juda muhim bir mavzu bo'lib, bu mintaqaning madaniy merosini aks ettiradi. Markaziy Osiyo xalqlari an'anaviy musiqa va madaniyatni o'ziga xos tarzda qadrlaydi, shu bois kompozitorlar o'z asarlarida xalq musiqa unsurlarini ishlatish orqali mintaqaning musiqa madaniyatini saqlash va rivojlantirishga intilishadi.

Markaziy Osiyo kompozitorlari o'z asarlarida an'anaviy xalq musiqasining ritmlari, kuy yo'llarini orkestrlashtirish orqali qayta sayqalashadi. Bular orasida **xalq musiqasi, maqom va maqom yo'lida yaratilgan cholg'u, aytim yo'llari** kabi xalq musiqa unsurlari mavjud. Misol uchun, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi kompozitorlar, maqom tizimidan yoki xalq kuylari va qo'shiqlaridan foydalanishadi.

Ba'zi kompozitorlar, xalq musiqasini simfonik orkestrlashtirish orqali yangilash va uni zamonaviy musiqiy tilga moslashtirishga harakat qilishadi. Masalan, **M.Burhonov, Ik.Akbarov, M.Tojiyev, A.Moldiboyev, A.Jubonov, B.Qidirbek** kabi kompozitorlar o'z asarlarida xalq musiqasini simfonik orkestr bilan uyg'unlashtirib, yangi musiqiy asarlar yaratishgan.

O'zbekiston kompozitorlari ijodida ham xalq musiqasining o'rni beqiyos. Jumladan, **A.Kozlovskiy, V.Uspenskiy, M.Burhonov, M.Ashrafiy, T.Sodiqov, Sh.Ramazonov, M.Tojiyev, M.Mahmudov, M.Bafoev, R.Abdullayev, H.Rahimov, D.Amanullayeva, D.Saydaminova, X.Tursunova, O.Abdullayeva, D.Zokirova** kabi kompozitorlar ijodida xalqchil musiqiy asarlarni xalq musiqa ijodiyoti namunalariga tayangan holda ijod etishgan.

Shuningdek, xalq musiqasining kompozitorlik ijodida tutgan o'rni, uning nafaqat milliy musiqaning rivojlanishiga, balki dunyo musiqasining umumiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi bilan ham ajralib turadi. Markaziy Osiyo kompozitorlarining ijodi, xalq musiqasini yangi musiqiy til va shakllarda ifodalashga, shuningdek, milliy musiqani global musiqiy jarayonlarga integratsiyalashda ham o'zining muhim o'rniga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. Халқ сўзи. 4 август, 2017 йил.



2. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони. // Халқ сўзи. 8 феврал, 2017 йил.

3 .Ғофурбеков Т. Бастакорлик ижодиёти: тарихи, таҳлили, тақдири. “Muharrir” нашриёти, Тошкент, 2019.

4. G‘ofurbekov T. O‘zbekiston musiqa madaniyati (o‘quv qo‘llanma). “Musiq”
2019.

Ҳамидова М. Санъат асарлари таҳлили. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2009.

5. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы. “Media-land”, Ташкент, 2006.

6. ИСТОРИЯ УЗБЕКСКОЙ СОВЕТСКОЙ МУЗЫКИ., Том I (1917-1945),- Т,Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма 1972;

7. ИСТОРИЯ УЗБЕКСКОЙ СОВЕТСКОЙ МУЗЫКИ., Том II (1945-1967),- Т,Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма 1973;

8. ИСТОРИЯ УЗБЕКСКОЙ СОВЕТСКОЙ МУЗЫКИ., Том III (1968-1984),- Т, Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма 1991;

